

INVESTITSION RISKLARNING TAMOYILLARI

VA XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397360>

*Usmonov Isfandiyor Ismoil o'g'li
Abirov Dilmurodbek Ravshanbek o'g'li
TDIU, Moliya fakulteti 2-kurs talabalari .*

Ilmiy rahbar: Rahimova Nozimaxon

*TDIU, Moliya kafedrasi o'qituvchisi
rahimovanozimaxon83@gmail.com*

Annotation: Investitsion faoliyatda risk bu investitsiyalarni qisman yoki to'liq yo'qotish, kutilgan daromaddan kamroq foyda olish va loyihada ko'zlangan maqsadlarga erisha olmaslik xataridir. Loyihadan qanchalik ko'p miqdorda daromad kutilsa, u shunchalik yuqori riskli hisoblanadi. Hozirgi kunda loyiha risklari deganda loyihani amalga oshirish natijasida ko'zlangan daromadlarning pasayishiga sabab bo'ladigan vaziyatlar majmuasi tushuniladi. Shu bilan birga loyiha riski investitsion loyihani amalga oshirishga halaqt beradigan yoki samaradorligini pasaytiradigan risklarning yig'indisini ham anglatadi. Riskni ma'lum bir qarorni qabul qilish natijasida zaxiralarni yo'qotish Imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo'shimcha xarajatlar zarurati sifatida belgilashi mumkin. Risk-bu bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda xaqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning paydo bo'lib qolish ehtimolidir. Risk kutilishi mumkin bulgan xatar bo'lib, investitsiyadan mo'ljallangan foydani olish jarayoniga xos bo'lgan noumidsizlikdir. Risklarning paydo bo'lish sabablari turlichadir. Masalan, ma'lumotlarning tanqisligi yoki to'liq bo'lmasligi, tashqi va ichki muhitdagi xarakatlar (raqobatchilar, ishchilar holati, xukumat va boshqalarning xarakatlari)

va h.k. "Risk" tushunchasiga juda yaqin bo'lgan "noaniqlik" tushunchasi riskning aniq turlarini tasniflash uchun sinonim sifatida qo'llaniladi.[1]

Kalit so'zlar: Investitsiya, investitsion risk , iqtisodiy risk, bozor riski , inflatsiya riski, valyuta riski, siyosiy risk, ijtimoiy risk, ekologik risk, texnologik risk, moliyaviy bozor.

Kirish. O'zbekiston Respublika iqtisodiyoti tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori qo'shilgan qiymatli eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, investitsiya jarayonlarini jadallashtirish va hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, shuningdek, joylarda yuqori daromadli ish o'rinalarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash maqsadida: Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan manfaatdor vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining 2023 — 2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi (keyingi o'rinalarda — Dastur) qabul qilindi.

Noaniqlik va risklarning har ikkalasi ham loyihadagi yo'qotish va zararlarga bog'liq bo'lganligi uchun ularning bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda ifodalash maqsadga muvofiqdir. Investitsiya risklarini turli belgilari bo'yicha tasniflash mumkin:

1. Tarkibi bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadilar: iqtisodiy risk; bozor riski; inflyatsiya riski; valyuta riski; siyosiy risk; ijtimoiy risk; ekologik risk; texnologik risk; marketing riski; moliyaviy risk; kredit riski; bankrotlik riski; ilm- texnika riski; informatsion risk va boshqalar.
2. Muddati bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadilar: qisqa muddatli risklar; uzoq muddatli risklar.

3. Olinadigan natijaga qarab risklar: spekulyativ risk ular ta'sirida katta zarar yoki katta foyda olish imkoniyati bor; sof risklar ular ta'sirida nolga teng bo'lgan zarar(foyda) ko'rish mumkin.

4. Loyihaga ta'sir etish darajasi bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadi: mumkin kin bo'lgan risklar - ular ta'sirida kutilgan foydadan ayrılish mumkin; kritik risklar loyiha pul tushumlaridan ayrılish xatari; katastrofik risklar daromaddan va kiritilgan Investitsiyalardan ayrılish xatari.[2]

Moliyaviy bozor eng yuqori riskga ega bo'lgan soha deb hisoblanadi. Undagi risklar ikkita katta guruhgaga bo'linadi:-tizimli risklar; tizimsiz risklar.

Tizimli risklar (investitsiya portfeli risklari) bu xatar ta'siriga ba'zi bir qimmatli kog'ozlar emas, balki butun bozor, uni katta bir qismi risklarga uchraydi. Bu holda iqtisodiy nobarqarorlik tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra ko'pchilik emitent va qimmatli qog'ozlar egalari zarar ko'rishlari mumkin. Tizimli risklarga quyidagilar kiradi: foiz riski; valyuta riski; inflyatsiya riski; siyosiy risklar.

Tizimsiz risklar - xatarga ba'zi bir qimmatli qog'ozlar yoki ularni majmuasi uchraydi, ya'ni ma'lum bir korxonaning qimmatli qog'ozlari yoki tarmoqning qimmatli qog'ozlari kiradi. Tizimsiz risklarga quyidagilar kiradi: tadbirkorlik riski; moliyaviy risklar; nolikvidlik riski.

Risklarni boshqarish bu risk va foyda miqdorini oqilona qo'shilmasini xarakatlardir. Risklarni boshqarishning asosiy maqsadi aniqlashga qaratilgan xarakatlardir. Risklarni boshqarishning asosiy maqsadi ularni pasaytirish hisoblanadi.

Risklarni boshqarish quyidagi asosiy bosqichlarga bo'linadi:

- Risk omilini aniqlash;
- Risk omilini tahlil qilish va baholash;
- Risklarni pasaytirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish yoki risk oqibatlarini bartaraf etish;
- Risklarni oldini olish va nazorat qilish;
- Risklarni boshqarish usullarini tanlash va qo'llash vaziyatlari va ularni oqibati xaqida ma'lumot to'plash va kelajakka tavsiyalar tuzish;

-Risk vaziyatlari va ularni oqibati xaqida ma'lumot to'plash va kelajakka tavsiyalar tuzish.[3]

Risk va noaniqlik sharoitida investitsiya loyihalarini tahlil qilish va baholash usullari:

- Sezgirlik tahlili usuli;
- Zararsizlik nuqtasini aniqlash usuli;
- Barqarorlikni tekshirish usuli;
- Matematik usullar (o'rtacha kvadratik chetlanish, dispersiya va variatsiya);
- Qarorlar daraxti barpo etilishi usuli;
- Stsenariylar usuli;
- Monte-Karlo usuli.

Investitsiya risklarini pasaytirish yo'llari.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi alohida risklar ta'sirini yo'qotish yoki yumshatish uchun bir qancha yo'llardan foydalilaniladi.

1. Riskdan qochish risk bilan bog'liq tadbirlardan voz kechishni (demak, bunda foydadan ham voz kechishni) bildiradi.

2. Riskni ushlab qolish-investor zimmasiga riskni qoldirish, bunda Investor o'z kapitalini riskli tadbirlarga yo'naltirayotganda, risklardan ko'rila digan zararlarni qoplash uchun mablag'i bo'lishi kerak.

3. Riskni uzatish (sug'urtalash) - investor risk havfini kimningdir zimmasiga yuklaydi. Riskni sug'urtalash, mantiqan olganda, muayyan risklarni sug'urta kompaniyalariga berishni anglatadi. Uning mohiyati investorning riskdan qutilish maqsadida daromadning bir qismidan voz kechish orqali aks ettiriladi. Bunda ajasini "nol"ga tushirish Investorning risk darajasini "nol"ga tushirish uchun to'lovni amalga oshirishga tayyor ekanligini tushunish mumkin. Ko'p hollarda, sug'urta kompaniyalari moliyaviy risklarni sug'urtalash bilan risk darajasini pasaytirishga to'liq erishishiga xizmat qiladilar.

4. Riskni pasaytirish ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zahira mablag'larini tashkil etish yo'li bilan yo'qotishlar hajmini qisqartirish hisoblanadi. Ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zahira mablag'larini tashkil etishdagi

asosiy muammo risklarning jiddiy oqibatlarini baholash hisoblanadi. Buning uchun loyiha qiymatini boshlang'ich baholashni hisobga olish lozim. Bu esa zahira summasini aniqlashga katta yordam beradi.[4]

Riskni pasaytirishning aniq vositasint tamoyillarga asoslansa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ortiqcha tavakkal qilish kerak emas;
- risk oqibatlari to'g'risida o'ylash lozim;
- kam narsa uchun risk qilish kerak emas.[5]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qayumov R.I., Xojimatov R.I. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: TDIU, 2010.
2. Маликов Т.С., Юлдашев З.Ю. Молия: уй хўжаликлари молияси. Ўқув қўлланма. – Т.: “Иқтисод-молия”, 2008
3. Xashimov A.A., Madjidov Sh.A., Muminova N.M. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.:Sharq matbaa nashriyot uyi, 2014.
4. Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирование инвестиций. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2001.
5. Bekmurodov A.Sh., Karriyeva Y.K., Ne'matov I.U., Nabihev D.H., Kattayev N.T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma – T.: Iqtisodiyot, 2010.
6. Rahimova Nozimaxon va Shaxzoda Davitova. "Davlat xaridi munosabatlarining subyektlari." *Science and Education* 3.12 (2022): 934-940.
7. Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2010.
8. Маликов Т.С., Ҳайдаров Н.Ҳ., Ҳасанов Р.Р. Молиявий бошқарув. – Т.: F.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009.

9. Маликов Т., Ҳайдаров Н. Бюджет даромадлари ва харажатлари. Ўкув қўлланма. – Тошкент, “Иқтисод-молия”, 2007.
10. Khamdamov S. ASSESSMENT OF RISKS RELATED TO PENSION SUPPORT OF CITIZENS CONCERNING PENSIONS BY AGE //International Finance and Accounting. – 2020. – Т. 2020. – №. 2. – С. 8.
11. Hamdamov, S. K. (2021). Zamonaviy dunyoda xalqaro investitsiyalarning asosiy shakllari. Science and Education, 2(12), 889-892.
12. www.arxiv.uz
-
13. www.stat.uz
14. www.lex.uz

